

XORIJIIY INVESTITSIIYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION MUHIT SAMARADORLIGI

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li

TDIU "Xalqaro moliya" kafedrasi katta o'qituvchisi.

E-mail: ochilov696@mail.ru ORCID: 0000-0003-3568-5145

Tel: +998946644771

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15048909>

Ko'pincha investitsion muhit va investitsion jozibadorlik iqtisodiy adabiyotlarda sinonim sifatida ko'rib chiqiladi. Lekin birinchi kontseptsiya yanada kengroq va ko'proq imkoniyatlarga ega. Bu mamlakat, mintaqadagi investitsion muhitning asosiy xarakteristikasi iqtisodiy tarmoq va hududiy sanoatdir. Investitsiya jozibadorligi esa biror bir ob'yekt yoki investitsiya loyihasi hisoblanadi. Ko'pincha investitsiya muhiti moliyaviy investitsiyalarning ma'lum darajada jozibadorligini yaratadigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa sharoitlar majmui sifatida aniqlanadi. Moliyaviy va kredit entsiklopedik lug'atida: investitsiya muhiti - "Har qanday mamlakatda siyosiy sifatini belgilovchi ijtimoiy-madaniy, moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlar tadbirkorlik infratuzilmasi, investitsiya samaradorligi va imkon darajasi kapitalni investitsiya qilishdagi risklar hisoblanadi", boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar samaradorligi va investitsiya tavakkalchiligidan muvozanati investitsiya muhiti bilan belgilanadi. Sarmoya nazarda tutilgan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun investitsiya muhitining ijobiy komponentini baholash asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiyalarning potentsial daromadlilik va salbiy komponentini o'rganish orqali investitsion risklar hosil bo'ladi. Investitsion muhitga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Qoida tariqasida, ular jamiyatga ta'sir qilish imkoniyatiga ko'ra tasniflanadi. Ular bo'yicha: ob'yektiv va sub'yektivga bo'linadi. Sub'yektiv omillarga inson faoliyati bilan bog'liq ta'sirlar bo'lsa, ob'yektivga joy, makon, soha va tarmoqlar faoliyati kiradi.

Mamlakatdagi qulay sarmoyani yaratish va investitsion muhitni takomillashtirish yoki bo'lmasa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uchun yordam beradigan tadbirlar majmui mavjud bo'lib, ular quyidagi jadvalda aks etgan (1-jadval).

1-jadval. Mamlakat investitsion muhitiga ta'sir qiluvchi omillar

Ijobiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
• ichki bozorning yuqori salohiyati;	• siyosiy beqarorlik;
• yuqori daromad darajasi;	• ijtimoiy keskinlik (ish tashlashlar, urushlar mafiya tuzilmalari, etnik va diniy nizolar va boshqalar);
• raqobatning past darajasi;	• inflyatsiyaning yuqori darajasi;
• barqaror soliq tizimi;	• yuqori qayta moliyalash stavkalari;
• resurslarning arzonligi (xom ashyo, mehnat, moliyaviy);	• tashqi va ichki yuqori darajadagi qarz;
• samarali davlat yordami.	• byudjet taqchilligi;
• monopoliyadan holi iqtisodiyot;	• passiv to'lov balansi;

• axborot ma'lumotlarining shaffofligi.

- qonunchilikning rivojlanmaganligi, shu jumladan investitsiya sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga rioya qilmaslik.

Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi jadvalda mamlakat investitsion muhitiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy segmentlarni keltirib o'tdik. Shu bilan birga xalqaro indekslar mavjud bo'lib, mamlakatning investitsion jozibadorligini aniqlashda miqdoriy usuldan foydalanishadi. Indeksler orasida eng keng tarqalgan usullar raqamli qiymatlar sifatida ifodalanadi. Xalqaro indekslarda muhim iqtisodiy va hisobga olgan holda alohida mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy farqlar, muayyan sohalarda aniq ustunliklarni aniqlash yoki milliy iqtisodiyotlar faoliyatining boshqa jihatlarini ko'rib chiqish orqali investitsion muhitga baho beriladi. Shuningdek, investitsion muhitni baholashda indekslar tomonidan berilgan reytinglar muhim rol o'ynaydi. Eng yirik va eng mashhur reyting agentliklari mavjud bo'lib, ular birinchi marta AQShda yaratilgan, masalan Moody's Investors, Standard & Poor's, Fitch - IBCA. Ushbu agentliklarning o'nlab vakolatxonalari bor, dunyo mamlakatlari va barcha mamlakatlar uchun bir xil tarzda ishlaydi. Shunday qilib, investitsiya muhiti murakkab va ko'p darajali tushuncha. Murakkabligi uning shakllanganligidadir, yuqorida ko'rsatilganidek, investitsiya faoliyati uchun sharoit yaratadigan ko'plab omillar ta'siri ostida baholanadi. Darajali xarakter orqali investitsion muhit deganda uning bahosi tushuniladi, mamlakat darajalari, hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Elvira Sojli, Wing Wah Tham, "The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States" In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com.
2. Пинали Э. Инвестиционный климат и частный сектор. // Экономическое обозрение. 2005., №9, 42–43-с.
3. Investitsiya sohasiga oid adabiyotlar yordamida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.
4. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya T., 2017 y. 67-68 betlar.